

## O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA

### SAMARQAND VILOYATINING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

***Sobirova Munisa Toyir qizi***

*Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi*

***Utayeva Robiya Otakulovna***

*Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi*

***Amirov Ramazon Mirhakim o‘g‘li***

*Navoiy davlat universiteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola so‘nggi yillar oralig‘ida O‘zbekiston Yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘atlari va Samarqand viloyati yalpi hududiy mahsulotining respublika iqtisodiyotidagi ulushi ko‘rib chiqiladi. Viloyatning sanoati, qishloq xo‘jaligi, eksport, transport infratuzilmasi va turizm salohiyati kabi sohalardagi hissasi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston iqtisodiyoti, sanoat, qishloq xo‘jaligi, eksport, turizm, transport infratuzilmasi, iqtisodiy o‘shish, kelajak salohiyati, investitsiyalar, urbanizatsiya, mintaqaviy markaz.

### МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

**Собирова Муниса Тойир кызы**

*Преподаватель Навоийского государственного университета*

**Утаева Робия Отакуловна**

*Преподаватель Навоийского государственного университета*

**Амиров Рамазон**

*Студент 4 курса Навоийского государственного университета*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются темпы роста ВВП Узбекистана в последние годы, а также вклад валового регионального продукта (ВРП) Самаркандской области в экономику республики. Освещается роль области в таких отраслях, как промышленность, сельское хозяйство, экспорт, транспортная инфраструктура и туристический потенциал".

**Ключевые слова:** Экономика Узбекистана: промышленность, сельское хозяйство, экспорт, туризм, транспортная инфраструктура, экономический рост, будущий потенциал, инвестиции, урбанизация, региональный центр.

## **THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF THE SAMARKAND REGION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN**

**Sobirova Munisa Toyir qizi**

*Teacher at Navoi State University*

**Utayeva Robiya Otakulovna**

*Teacher at Navoi State University*

**Amirov Ramazon**

*4th year student at Navoi State University*

**Annotation.** This article examines the growth rates of Uzbekistan's GDP in recent years and the contribution of Samarkand region's Gross Regional Product (GRP) to the national economy. It also highlights the region's role in industries such as manufacturing, agriculture, export, transport infrastructure, and tourism potential".

**Keywords:** Economy of Uzbekistan: industry, agriculture, export, tourism, transport infrastructure, economic growth, future potential, investment, urbanization, regional center.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda barqaror iqtisodiy o'smoqda, chunki 2017-2025 yillar oralig'ida yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'rtacha yillik 5-6 % ga oshgan bo'lsa, 2024 -yilda 115 mlrd \$ ga yetgan, 2025-yil so'ngida esa O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti katta o'sishga erishib (7.7%) 147 mlrd \$ oshiqroqni tashkil etdi. Bu o'sish bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlari, investitsiyalarni jalb qilish va eksport hajmining oshishi bilan bog'liq. Iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida xizmatlar, sanoat va qishloq xo'jaligi yetakchilik qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotidagi kuzatilayotgan ushbu barqaror o'sish jarayonida viloyatlar, xususan Samarqand viloyati ham muhim hissa qo'shmoqda.

Samarqand viloyati 2025-yilda yalpi hududiy mahsulotini (YaHM) 121 489,5 soʻmni tashkil etdi va 2024- yil bilan taqqoslaganda 8,0 % ga oʻsdi. YAHM deflyator indeksi 2024- yilga nisbatan 108,3 % ni tashkil qildi. Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qoʻshgan hissasi 6,6 % ga yetdi. Aholisi 4,38 million boʻlgan bu hudud nafaqat sanoat va qishloq xoʻjaligi, balki turizm va transport markazi sifatida ham respublika iqtisodiyotidagi yetakchi oʻrinda ekanligi ahamiyatlidir.

Oʻzbekiston iqtisodiyoti 2017-yildan buyon sezilarli oʻsishni boshdan kechirmoqda. 2017-yilda YaIM 300 trln.soʻm atrofida boʻlsa 2022 yilda oʻsish surʻati 5,7 foizni tashkil etdi. 2025-yilda hisoblangan nominal YaIM hajmi 147 mlrd AQSh dollariga teng boʻlgan. Bu oʻsishda sanoat modernizatsiyasi, xizmatlar sohasining rivojlanishi va eksport hajmining oshishi muhim rol oʻynadi.

Samarqand viloyati respublika iqtisodiyotidagi eng muhim hududlardan biridir. Viloyatning YaHM 2010-yilda 6585,8 mlrd. soʻm boʻlsa, 2025-yilda 121489.5mlrd. soʻmgacha oʻsdi, bu oʻrtacha yillik 7-10% oʻsishni koʻrsatadi. Respublika YaIMdagi ulushi taxminan 8-10% ni tashkil etib, Samarqandni iqtisodiy markaz sifatida mustahkamladi.

### 1-jadval

#### Yalpi ichki mahsulotning Samarqand viloyatidagi ulushi dinamikasi

| Yillar | Oʻzbekiston YaIM (trln.soʻm) | Samarqand viloyati YaHM (mlrd.soʻm) |
|--------|------------------------------|-------------------------------------|
| 2017   | 302.8                        | 29.85                               |
| 2018   | 407.5                        | 36.32                               |
| 2019   | 511.8                        | 43.55                               |
| 2020   | 602.2                        | 47.57                               |
| 2021   | 734.6                        | 59.26                               |
| 2022   | 888.3                        | 68.99                               |
| 2023   | 1192.2                       | 83.14                               |
| 2024   | 1454.6                       | 99.87                               |
| 2025   | 1849.7                       | 121489.5                            |

*Ushbu statistik maʼlumotlar samstat.uz saytidan olindi.*

Viloyatda 2025-yil koʻrsatkichlariga koʻra sanoat mahsulotlari 57767.5 mlrd. soʻmga yetdi. Avtomobilsozlik (“Isuzu”, “MAN”), yengil sanoat va oziq-ovqat ishlab chiqarish yetakchi sohalaridan hisoblanadi. Bu koʻrsatkichlar Samarqandni

respublika sanoatidagi yetakchi hududlardan biriga aylantiradi. Shuningdek Samarqanda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqishda o'z urniga ega bo'lgan hududlardan hisoblanadi, chunki paxta, uzum va meva-sabzavot yetishtirish eksport salohiyati keying yillarda sezilarli darajada oshmoqda. Jumladan, 2014-yilda 12176,6 mlrd. so'm bo'lgan mahsulot so'ngi yillarda yillarda barqaror o'sib borishi kuzatilmoqda. Tashqi savdo aylanmasi 2010-yilda 452,3 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, AQSh dollaridan 2025-yilda 4066.3 mln. dollarga oshdi, bu Samarqandning xalqaro bozorda alohida o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi.

## 2-jadval

Samarqand viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

| <b>Tarmoq nomi</b>                       | <b>O'lchov birligi</b> | <b>2010</b> | <b>2015</b> | <b>2020</b> | <b>2025</b> |
|--|------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| Yalpi hududiy mahsulot                   | mlrd.so'm              | 6585,8      | 18513,7     | 47576,0     | 121489.5    |
|  | o'sish sur'ati, %      | 110,7       | 108,4       | 100,8       | 108.0       |
| Sanoat mahsuloti                         | mlrd.so'm              | 2011,2      | 6095,5      | 18383,4     | 57767.5     |
|  | o'sish sur'ati, %      | 119,8       | 113,1       | 105,4       | 108.5       |
| Iste'mol tavarlari                       | mlrd.so'm              | 1412,4      | 3829,9      | 11836,0     |             |
|  | o'sish sur'ati, %      | 118,5       | 108,2       | 119,9       |             |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | mlrd.so'm              | 5581,3      | 14766,6     | 33759,4     | 60758.2     |
|  | o'sish sur'ati, %      | 106,6       | 106,9       | 102,8       | 103.3       |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar         | mlrd.so'm              | 1083,1      | 3237,2      | 14656,4     | 38281.9     |
|  | o'sish sur'ati, %      | 127,4       | 115,8       | 128,8       | 125.6       |
| Qurilish ishlari                         | mlrd.so'm              | 519,7       | 2010,6      | 5755.3      | 18 637,5    |
|  | o'sish sur'ati, %      | 139,9       | 119,5       | 111.7       | 117.3       |
| Chakana savdo tovar aylanmasi            | mlrd.so'm              | 1683,0      | 6078,2      | 16816.8     | 41892,4     |
|  | o'sish sur'ati, %      | 122,3       | 115,7       | 111.4       | 110.3       |
| Xizmatlar, jami                          | mlrd.so'm              | 1799,3      | 5832,9      | 14086.1     | 78 163,0    |
|  | o'sish sur'ati, %      | 120,1       | 115,2       | 101.0       | 115.9       |
| Tashqi savdo aylanmasi                   | mln.AQSh doll.         | 452,3       | 910,6       | 1491.5      | 4066.3      |
|  | o'sish sur'ati, %      | 92,0        | 85,7        | 85.2        | 133.6       |

|         |                   |       |       |        |         |
|---------|-------------------|-------|-------|--------|---------|
| Eksport | mln.AQSh doll.    | 109,2 | 232,7 | 335.2  | 1 150,9 |
|         | o'sish sur'ati, % | 67,1  | 129,3 | 84.1   | 129.9   |
| Import  | mln.AQSh doll.    | 343,1 | 677,9 | 1156.4 | 2915.4  |
|         | o'sish sur'ati, % | 104,3 | 87,6  | 85.6   | 135.1   |

*Ushbu statistik ma'lumotlar samstat.uz saytidan olindi.*

Yuqoridagi jadvalda Samarqand viloyatining 2010-yildan 2025-yilgacha bo'lgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini aks ettiradi. Ushbu raqamlar hududiy iqtisodiyotning jadal o'sishi va tarkibiy o'zgarishlarini ko'rsatmoqda. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, YHM hajmi: 2010-yilda 6 585,8 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 121 489,5 mlrd. so'mga yetishi kutilmoqda. Bu 15 yil ichida nominal qiymatda qariyb 18 barobar o'sishni anglatadi. Eng barqaror o'sish sur'ati 2010-yilda (110,7%) kuzatilgan. 2020-yilda pandemiya ta'sirida o'sish biroz sekinlashib, 100,8% ni tashkil etgan. 2025-yil uchun prognoz ko'rsatkichi 108,0% qilib belgilangan. Sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida esa bu ko'rsatkichlar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yildagi 2 011,2 mlrd. so'mdan 2025-yilda 57 767,5 mlrd. so'mga ko'tarilishi kutilmoqda. Sanoatning o'sish sur'ati 2025-yilda 108,5% darajasida saqlanib qolishi rejalashtirilgan.

Eng keskin o'sish xizmatlar sohasida kuzatiladi. 2010-yilda 1 799,3 mlrd. so'm bo'lgan xizmatlar hajmi 2025-yilga kelib 78 163,0 mlrd. so'mga yetishi kutilmoqda. Bu sohadagi o'sish sur'ati 2025-yilda 115,9% ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Asosiy kapitaldagi investitsiyalar hajmi 2010-yildagi 1 083,1 mlrd. so'mdan 2025-yilda 38 281,9 mlrd. so'mga yetishi kutilmoqda. 2025-yilda investitsiyalar o'sish sur'ati 125,6% ni tashkil etishi uning iqtisodiyotdagi drayver roli saqlanib qolishini ko'rsatadi.

Qurilish ishlari: 2010-yilda 519,7 mlrd. so'mlik ishlar bajarilgan bo'lsa, 2025-yilda bu miqdor 18 637,5 mlrd. so'mga yetishi kutilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport hajmi 15 yil ichida 10 barobardan ziyod ko‘paygan bo‘lsa-da, import hajmi hamon yuqoriligicha qolmoqda. 2025-yilda eksportning o‘shish sur‘ati 129,9%, importniki esa 135,1% bo‘lishi kutilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Samarqand viloyati iqtisodiyoti 2010–2025-yillar oralig‘ida agrar yo‘nalishdan sanoat va xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan zamonaviy iqtisodiyotga o‘tishni davom ettirmoqda. Ayniqsa, xizmatlar va investitsiyalar o‘shishning asosiy omillari bo‘lib xizmat qilmoqda.

Samarqandning iqtisodiy ahamiyati nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy miqyosda ham seziladi, chunki viloyatning sanoat va eksportdagi yuqori ko‘rsatkichlari, shuningdek, turizm va transportdagi salohiyati uni respublikadagi eng yetakchi viloyatlardan biriga aylantirdi. Samarqand viloyatining aholisi 2026-yil yanvar holatiga ko‘ra 4 379.8 ming kishiga yetdi, bu respublika aholisining 11,5% ini tashkil etadi. Investitsiyalar va sanoat o‘shishi tufayli yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Samarqand shahri yirik shahar hisoblanib, ayni vaqtda 605,8 ming kishi istiqomat qiladi.

Viloyat transport-logistika markazi sifatida ham rivojlanmoqda. “Afrosiyob” tezyurar poyezdi Toshkent-Samarqand yo‘nalishida turistlar va mahalliy aholiga zamon talablariga mos tarzda xizmat ko‘rsatmoqda. Samarqand xalqaro aeroporti rekonstruksiya qilinishi ortidan viloyatdagi ichki va tashqi reyslarning salmog‘i oshdi. 2024-yilda xizmatlar sohasi 78 163,0mlrd. so‘mga yetdi, bu asosan turizm sohasidan tushgan daromadlar hisoblanadi. Samarqand viloyatida 2027-yilgacha turizm sohasidan tushumlar hajmini 10 baravarga oshirish rejalashtirmoqda. Bu esa viloyat istiqbol dasturlariga o‘z aksini topgan.

“Aqlli shahar” loyihalari va raqamlashtirish viloyatni innovatsion markazga aylantirmoqda. Shuningdek, transport va iqtisodiy aloqalar rivoji Samarqand viloyatini Yevropa-Osiyo o‘rtasidagi mintaqaviy markazga aylantirishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyati respublika iqtisodiyotidagi muhim o‘shish nuqtalaridan biridir. YaHMning 121489.5mlrd. So‘mga yetishi, sanoat va

turizmning yetakchi roli viloyatni qulay strategik hududga aylantirmoqda. Kelajakda turizm va transport rivoji orqali “O‘zbekiston brendi”ni xalqaro maydonda mustahkamlashi mumkin. Samarqand viloyatida turizm infratuzilmasini kengaytirish, eksportni diversifikatsiya qilish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish viloyatni kelajakda yanada rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.S.Soliyev, Sh.Z.Jumaxanoz, A.M.Toshp`latov “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” darslik, “Mashrab” nashriyot, 2024
2. N.K.Komilova, Sh.Z.Jumaxanov “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi” darslik, Toshkent. “MALIK PRINT CO”, 2021
3. Zakirov, S. S. (2023). Deepening Of Territorial Specialization in The Production of Agricultural Products (In the example of the suburbs of the city of Navoi). Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 19, 8-15.
4. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. — Ta’lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent, 2017.
5. Худойбердиева, И. А., & Утаева, Р. О. (2024). КЛАССИФИКАЦИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОТРАСЛЕЙ С ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ЖИВОТНОВОДСТВА НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ). Экономика и социум, (12-1 (127)), 1155-1161.
6. Latipov, N. (2022). Shaharlar va ularning ekologik muhit bilan bog'liqligi. Scienceweb academic papers collection.
7. Latipov, N. F. (2024). THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS CORRELATION WITH THE ECOLOGICAL CIRCUMSTANCE. Science and innovation, 3(Special Issue 4), 343-352.
8. Худойбердиева I.A., & Ahmatova S.N. (2024). ECONOMIC GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF KHARTICHI DISTRICT. Экономика и социум, (11-2 (126)), 516-520.

9. Mukhammedova Nazokat Jurayevna (2018). The geographical features of population mortality in Uzbekistan. European science review, (1-2), 35-38.
10. Sh, N. S. (2021). MIGRATORY PROCEDURES HUMAN RESOURCES IN GLOBALIZATION PROCESS. Теория и практика современной науки, (8 (74)), 3-5.
11. Шодиев, С. Р., Чембарисов, Э. И., & Шодиева, Г. Р. (2021). Минерализация и химический состав речных и коллекторных вод Кашкадарьинской области Республики Узбекистан. Экономика и социум, (2-2 (81)), 353-359.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (stat.uz)
13. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi (samstat.uz)